

# OLDI-SOTDI SHARTNOMASI

31«8»2022 yil.

250-4-56-OB/2022-son

Keyingi o‘rinlarda “Sotuvchi” deb ataladigan “Sherbek Porlok”MChJ nomidan X.Xaknazarov (ustav ishonchnoma buyruq va x.q.) orqali bir tomonidan, keyingi o‘rinlarda “Sotib oluvchi” deb ataladigan G‘uzor tumani xokimligi Obodonlashtirish boshkarmasi raxbari G‘.Erqulov ikkinchi tomondan quyidagilar to‘g‘risida ushbu shartnomani tuzdilar:

## 1. Shartnoma predmeti

1.1. Shartnomada tovar deb nomlanuvchi Ekskavator maxsus texnika sotib olish o‘rtasida tuzilayotgan shartnomaning predmeti hisoblanadi.

1.2. Tovarning kafolat muddati 3 (uch) yil. Kafolat muddati tovar sotib oluvchiga topshirilgan paytdan, tovar almashtirilganda esa yangidan o‘ta boshlaydi.

1.3. Ekskavator narxi **675 000 000 (Olti yuzi yetmish besh million**) so‘m. Tovar haqi shartnoma tuzilgan paytda to‘lanishi lozim.

1.4. Agar tovardan foydalanilmagan, uning iste’mol xususiyatlari saqlangan bo‘lsa va sotuvchidan sotib olinganining isboti bo‘lsa, sotib oluvchining tovarni almashtirish yoki qaytarib olish haqidagi talabi qanoatlantiriladi.

1.5. Sotib oluvchi o‘ziga tovar topshirilgan paytdan boshlab o‘n kun mobaynida xarid qilingan tegishli sifatli tovarni xarid joyida o‘lchami, shakli, hajmi, andozasi, rangi, to‘plami boshqacha bo‘lgan xuddi shunday tovarga almashtirishi mumkin. Bunda u narxlarda farq bo‘lgan taqdirda sotuvchi bilan zarur hisob-kitobni amalga oshiradi.

Agarda sotuvchida almashtirish uchun zarur tovar bo‘lmaganida sotib oluvchi xarid qilingan tovarni sotuvchiga qaytarib berish va unga to‘langan pul summasini olish huquqiga ega.

1.6. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo‘lib, ularning har biri bir xil kuchga ega.

## 2. Shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlar

### 2.1. Sotuvchining huquqlari:

- sotilgan tovar haqini to‘lashni;
- tovarni o‘z vaqtida qabul qilib olishni;
- shartnoma shartlariga to‘liq rioya etishni;
- sotib oluvchi tomonidan o‘ziga yetkazilgan zararlarning qoplanishini talab qilish.

### 2.2. Sotuvchining majburiyatlar:

- sotib oluvchi talab qilgan hollarda tovar to‘g‘risida unga zarur va to‘g‘ri axborotni qonun hujjatlarida belgilangan yoki chakana savdoda qo‘yiladigan talablarga muvofiq holda berish;
- tovarni sotib oluvchiga mulk qilib topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni topshirish;
- shartnomada ko‘rsatilgan miqdordagi tovarni topshirish;

- shartnomada ko‘rsatilgan sifatdagi tovarni topshirish;
- uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan holi bo‘lgan tovarni topshirish;
- tovarni shartnomada ko‘rsatilgan assortimentda topshirish;
- tovarni mansub ashyolari va tegishli hujjatlari bilan birga topshirish;
- shartnomada ko‘rsatilgan but tovarni topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni sotib oluvchiga idishda yoki o‘ralgan holda topshirish;
- tovarni sotib oluvchiga topshirgunga qadar saqlash.

### **2.3. Sotib oluvchining huquqlari:**

- tovar to‘g‘risida zarur va to‘g‘ri axborotni qonun hujjatlarida belgilangan yoki chakana savdoda qo‘yiladigan talablarga muvofiq holda berishni;
- shartnoma tuzilgunga qadar tovarni ko‘zdan kechirish, o‘z oldida tovarning xossalalarini tekshirishni yoki tovardan qanday foydalanishni ko‘rsatishni;
- sotib olayotgan tovarni o‘ziga mulk qilib topshirishni;
- shartnomada ko‘rsatilgan miqdordagi tovarni topshirishni;
- shartnomada ko‘rsatilgan sifatdagi tovarni topshirishni;
- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi bo‘lgan tovarni topshirishni;
- tovarni shartnomada ko‘rsatilgan assortimentda topshirishni;
- tovarni mansub ashyolari va tegishli hujjatlari bilan birga topshirishni talab qilish.

### **2.4. Sotib oluvchining majburiyatları:**

- sotib olgan tovar haqini o‘z vaqtida to‘lash;
- tovarni o‘z vaqtida qabul qilib olish;
- shartnoma shartlariga to‘liq rioya etish;
- sotuvchiga yetkazilgan zararni qoplash;
- sotuvchi tomonidan tovarni saqlash uchun qilingan zarur harajatlarni to‘lash.

Sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, assortimenti, sifati, butligi, idishi va o‘ralishi to‘g‘risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o‘n kun muddat ichida ma’lum qilishi shart.

## **3. Shartnoma bo‘yicha javobgarlik**

3.1. Agar sotib oluvchiga uning talabiga ko‘ra sotish joyida darhol tovar to‘g‘risidagi axborotni olish imkonи berilmagan yoxud uning tovarni ko‘zdan kechirish, tovarning

xossalari tekshirish yoki tovardan foydalanishni ko'rsatishni talab qilish huquqi ta'minlanmagan bo'lsa, u chakana oldi-sotdi shartnomasini tuzishdan asossiz bosh tortilgani tufayli o'zi ko'rgan zararni to'lashni sotuvchidan talab qilishga, agar shartnoma tuzilgan bo'lsa, oqilona muddatda shartnomani bajarishdan bosh tortishga, tovar uchun to'langan summani qaytarishni va zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Sotib oluvchiga tovar to'g'risida tegishli axborot olish imkonini bermagan sotuvchi tovar sotib oluvchiga topshirilganidan so'ng tovarda paydo bo'lган kamchiliklar uchun ham, agar sotib oluvchi bu kamchiliklar o'zida bunday axborot bo'lмагани sababli paydo bo'lганини isbotlasa, javobgar bo'ladi.

3.2. Agarda tovar sotib oluvchiga idishsiz va o'ramagan holda yoki tegishli idishga joylamagan va tegishli darajada o'ramagan holda topshirilgan taqdirda, sotib oluvchi sotuvchidan tovarni idishga joylashtirish va o'rashni yoxud tegishli bo'lмаган idish va o'rashni almashtirishni talab qilish yoki bu talablarni qo'yish o'rniga ushbu shartnomaning 3.3-bandi birinchi qismidagi talablarni qo'yishga haqli.

3.3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 434-moddasiga ko'ra sotib oluvchiga sifati tegishli darajada bo'lмаган tovar sotilganida, agar uning kamchiliklari shartnoma tuzish paytida ma'lum qilinmagan bo'lsa, sotib oluvchi o'z xohishiga ko'ra:

xuddi shu markadagi (modeldag'i, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lган tovarga almashtirishni; xarid narxini tegishinchha qayta hisoblagan holda boshqa markadagi (modeldag'i,

artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lган tovarga almashtirishni; tovarning kamchiliklarini tekinga bartaraf etishni yoki sotib oluvchi yoxud uchinchi shaxs tomonidan tovarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun qilingan xarajatlar qoplanishini; xarid narxini mutanosib ravishda kamaytirishni;

ko'rilgan zarar o'rnini qoplagan holda shartnoma bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Tovar uchun to'langan pul summasini sotib oluvchiga qaytarish vaqtida sotuvchi undan tovardan to'liq yoki qisman foydalanganligi, tovar ko'rinishi yo'qolganligi yoki boshqa shunga o'xhash holatlar tufayli tovar qiymati qancha pasaygan bo'lsa, shuncha summani ushlab qolishga haqli emas.

3.4. Sotuvchi shartnoma bo'yicha majburiyatni bajarmagan taqdirda, zararni qoplash va neustoyka to'lash sotuvchini majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.


3.5. Agarda sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, assortimenti, sifati, butligi, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilmasa, sotuvchi shartlar buzilganligi natijasida kelib chiqadigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

#### **4. Fors-major holatlar**

4.1. Sotuvchi fors-major holatlar (majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun to'sqinlik qiluvchi yengib bo'lmas kuch ta'siri: elektr o'chishi natijasida yuzaga keladigan kuyish, tovar yetkazilayotgan paytda sodir bo'lган tasodifiy shikastlanish, yong'in chiqishi, suv tegishi natijasida buzilishi va boshqa holatlar) natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

## 5. Taraflarning rekvizitlari

|  |   |   |
|--|---|---|
| <b>"Ilerbek Porlok" MChJ</b>   |   | <b>G'uzor tumani xokimligi Obodonlashtirish boshkarmasi</b><br><i>(Byudjet mablaglari oluvchi nomi)</i>   |
| Manzili: Koson tumani Sherbek kishlogi<br>xlr: 2020 8000 9009 1348 7001  |   | Manzili: G'uzor tumani Chanok MFY Baxmal kishlogi<br>shlx: 3018 2186 0102 0770 6520 0110 002  |
| Bank nomi Uzsanoat kuriish bank<br>MFO 00854<br>INN: 305691024<br>OKONX: |   | INN: 206 783 891<br>OKONX: 90211<br>Gazna xlv: 2340 2000 3001 0000 1010<br>Bank nomi: Markaziy bank Toshkent sh bosh boshkarmasi XKKM<br>MFO: 00014<br>Gaznachilik bulinmasi STIRi: 301 122 919 |
| Raxbar<br>X.Xaknazarov   |  | Raxbar G'.Erkulov   |

|  |   |                            |
|--|---|----------------------------|
|  | Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan.<br>Elektron raqamli imzoning haqiqiyigini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang. |                            |
|  | Imzolovchi F.I.SH.  | G'IYOS ERQULOV UROL O'G'LI |
|  | Imzolangan sana   | 31 авг 2022 15:31          |
|  | Hujjat kodi   | PG8327170852               |
|  | Hulosa kodi   | GS3750566668               |

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi: Shartnomalarga oid,
2. Loyihaning nomi: Oldi-sotdi shartnomasi

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va O‘RQ-670-I-son “Xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining sharnomaviy-huquqiy bazasi” to‘g‘risidagi hamda O‘RQ-684-son “Davlat xaridlari” to‘g‘risidagi Qonuniga asosan:

G‘uzor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi va “Sherbaek Porloq” MCHJ o‘rtasidagi **675,000,000** (Olti yuz yetmish besh million) so‘mni tashkil etgan Ekskavator maxsus texnikasini xarid qilish va ikkinchi tomon yetkazib berish to‘g‘risidagi oldi-sotdi shartnomasi haqida;

Mazkur shartnomasi O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining sharnomaviy-huquqiy bazasi” to‘g‘risidagi qonuniga asosan shartnomasi (kontrakt) tuzish yuzasidan tavsiyalar asosida ishlab chiqilgan.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot; G‘uzor tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasining shartnomasi va buxgalteriya bo‘limi 2022 yil 31 avgust

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz boshlig’i:**

2022 yil «31» avgust



**B. Avazov**

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 140407 на приобретение Техника сотовых**

**Способ проведения электронный**

Дата 26.08.2022

Время рассмотрения 26.08.2022 16:25

Конкурсная комиссия Гузор туман Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

|                              |                                       |                   |                             |
|------------------------------|---------------------------------------|-------------------|-----------------------------|
| <b>Председатель комиссии</b> | BERDISHUKUROV MURODILLA NURBOYEVICH   | технадзор         | Гузор тумани ободонлаштириш |
| <b>Секретарь комиссии</b>    | SHUKUROV BOBUR TO'RA O'G'LII          | Участка устаси    | Гузор тумани ОБ             |
| <b>Член комиссии</b>         | ERGASHEV ALISHERJON ARSLONBEK O'G'LII | Омбор мудири      | Гузор тумани ОБ             |
| <b>Член комиссии</b>         | RIZAYEV AVAZ MUSURMON O'G'LII         | Етакчи мутахассис | Гузор тумани ОБ             |
| <b>Член комиссии</b>         | MAXMUDOV DILMUROT ISKANDAROVICH       | Бригадир          | Гузор тумани ОБ             |
| <b>Член комиссии</b>         | NOROV RAVSHAN AVAZOVICH               | Бош мухандис      | Гузор тумани Ободонлаштириш |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 26.08.2022 года № лота 140407.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

|   |   |
|---|---|
| <b>Наименование товара (работы, услуги)</b> | Экскаватор  |
| Подробное описание                          | Экскаватор (28.92.20.000-00001) Экскаватор Стандартный объём ковша 0,3 м3 Двигатель, мощность - 60 кВт Макс. глубинакопания - 3320 мм, Макс. высота выгрузки - 5093 мм, |
| Количество товара                           | 1.00  |
| Единица измерения                           |   |
| Цена товара (услуги) за единицу             | 675 000 000.00  |
| Стартовая сумма                             | 675 000 000.00  |
| Валюта                                      | UZS   |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Солиқ ва банкдан қарзи йўқлиги бўйича маълумотнома охирги 4 кунлик бўлиши керак 20 балл

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифига кўра

Обязательность: Не критично

| Наименование участника           | Макс балл | Значение участника    | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|----------------------------------|-----------|-----------------------|----------------|------------|------------|---------|
| МЧЖ ЕМА CHINA<br>TEXNIKA SERVICE | 20        | Справка               | 19             | Экспертная |            |         |
| SHERBEK PORLOQ<br>MCHJ           | 20        | хужжат илова килинади | 19             | Экспертная |            |         |

Критерий №2 Ташкилот банкротлик холатида эмаслиги ва бошқа таъминотчилардан қарздорлиги йўқлиги тўғрисида маълумотнома тақдим этиш 20 балл

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифига кўра

Обязательность: Не критично

| Наименование участника           | Макс балл | Значение участника    | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|----------------------------------|-----------|-----------------------|----------------|------------|------------|---------|
| МЧЖ ЕМА CHINA<br>TEXNIKA SERVICE | 20        | Гарантийное письмо    | 10             | Экспертная |            |         |
| SHERBEK PORLOQ<br>MCHJ           | 20        | хужжат илова килинади | 19             | Экспертная |            |         |

Критерий №3 Муқаддам давлат буютмаларини бажарганлиги тўғрисида шартнома ва хужжатларни тақдим қилиш 20 балл

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифига кўра

Обязательность: Не критично

| Наименование участника           | Макс балл | Значение участника        | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|----------------------------------|-----------|---------------------------|----------------|------------|------------|---------|
| МЧЖ ЕМА CHINA<br>TEXNIKA SERVICE | 20        | Выполненные поставки 2022 | 20             | Экспертная |            |         |
| SHERBEK PORLOQ<br>MCHJ           | 20        | хужжат илова килинади     | 20             | Экспертная |            |         |

Критерий №4 Ташкилот тўлиқ иш фаолиятида эканлиги бўйича Ишчилар сони, техника ва механизмлар сони, жамият низоми, гувоҳномаси, раҳбар паспорти 20 балл

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифига кўра

Обязательность: Не критично

| Наименование участника           | Макс балл | Значение участника    | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|----------------------------------|-----------|-----------------------|----------------|------------|------------|---------|
| МЧЖ ЕМА CHINA<br>TEXNIKA SERVICE | 20        | гувоҳнома             | 10             | Экспертная |            |         |
| SHERBEK PORLOQ<br>MCHJ           | 20        | хужжат илова килинади | 18             | Экспертная |            |         |

Критерий №5 Таъминотчини ўзининг 30 фойз айланма маблағга эга бўлиши тўғрисида маълумотнома тақдим қилиш 20 балл

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифига кўра

Обязательность: Не критично

| Наименование участника           | Макс балл | Значение участника       | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|----------------------------------|-----------|--------------------------|----------------|------------|------------|---------|
| МЧЖ ЕМА CHINA<br>TEXNIKA SERVICE | 20        | Выполнение поставки      | 16             | Экспертная |            |         |
| SHERBEK PORLOQ<br>MCHJ           | 20        | хужжат илова<br>килинади | 19             | Экспертная |            |         |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника                 | Стартовая сумма   | Предлагаемая сумма    | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения       | Оценка стоимости (балл) |
|--|-------------------|-----------------------|----------------------------------|------------------------|----------------------|------------------------|-------------------------|
| МЧЖ ЕМА<br>CHINA<br>TEXNIKA<br>SERVICE | 675 000<br>000.00 | 569 000 000.00<br>UZS | 569 000 000.00                   | 00.00                  | 569 000<br>000.00    | 26.08.2022<br>12:05:57 | 10.00                   |
| SHERBEK<br>PORLOQ<br>MCHJ              | 675 000<br>000.00 | 675 000 000.00<br>UZS | 675 000 000.00                   | 00.00                  | 675 000<br>000.00    | 26.08.2022<br>15:09:25 | 08.43                   |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника              | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|-------------------------------------|---------------------------------|--------------------------------|---------------|
| МЧЖ ЕМА CHINA<br>TEXNIKA<br>SERVICE | 67.5                            | 10                             | 77.5          |
| SHERBEK PORLOQ MCHJ                 | 85.5                            | 8.43                           | 93.93         |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 140407 от 26.08.2022 года на приобретение Техника сотиб олиш определила победителем:


SHERBEK PORLOQ MCHJ  
305691024.

и резервный исполнитель: МЧЖ ЕМА CHINA TEXNIKA SERVICE (206993464)

Проголосовали

| Комиссия              | Ф.И.О.                                 | Голосование | Комментарии |
|-----------------------|--|-------------|-------------|
| Председатель комиссии | BERDISHUKUROV MURODILLA<br>NURBOYEVICH | Согласен    |             |
| Член комиссии         | RIZAYEV AVAZ MUSURMON O'G'LII          | Согласен    |             |
| Член комиссии         | MAXMUDOV DILMUROT ISKANDAROVICH        | Согласен    |             |
| Член комиссии         | NOROV RAVSHAN AVAZOVICH                | Согласен    |             |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING  
QARORI

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2022 - yil 20 - yun

469-4-0-Q 22

Qashqadaryo viloyati hokimligi

G'uzor tumanida ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash uchun tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga maxsus texnika va uskunalar sotib olish hamda 3 ta suv yig'ish va taqsimlash inshoati qurish bilan bog'liq xarajatlarga mablag' ajratish to'g'risida

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 6-maydagi VI-45-84-4-0-K/22-son qaror ijrosini ta'minlash maqsadida va G'uzor tuman hokimligining 2022-yil 9-apreldagi 1-06/122-son murojaat xatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6 va 25-moddalariga asosan,


**QAROR QILAMAN:**

1. Viloyat hokimligi Moliya bosh boshqarmasi (Yusupov), viloyat mahalliy budgetining 2022-yil boshidagi erkin qoldiq mablag'lari hisobidan, G'uzor tumanida ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash uchun tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga maxsus texnika va uskunalar sotib olish hamda 3 ta suv yig'ish va taqsimlash inshooti qurish bilan bog'liq xarajatlar uchun G'uzor tuman hokimligi budgetiga 1 050,0 (bir milliard ellik) mln.so'm mablag' ajratsin.
2. Viloyat G'aznachilik boshqarmasi (Ahmedov), G'uzor tuman hokimligi (Suyunov) - mazkur qarorga asosan ajratilgan mablag'larni to'lov intizomiga rioya etgan holda ishlatalishini ta'minlasin.
3. Viloyat davlat moliyaviy nazorat boshqarmasi (Rahmatov) - ajratilayotgan mablag'ning maqsadli va samarali ishlatalishi ustidan nazorat o'rnatsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'tinbosari A.Qodirov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi

M.Azimov



«ТАСДИКЛАЙМАН»

Фузор тумани хокимлиги  
Ободонлаштириш бошкармаси бошлиги

Ф.Эркулов



28.08.2022 йил

№ 28/08

Фузор тумани

Фузор тумани хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси итомонидан Экскаватор сотиб олиш ишлар буйича танлов асосида шартнома тузиб таъмиrlаш ишларини ташкил қилиш комиссиясининг

**ТАНЛОВ КОНКУРС БАЁНИ:**

Комиссия раиси технадзор

раиси:

М.Бердишукуров

АЪЗОЛАРИ:

Бош мухандис

Р.Норов

Етакчи мутахасис

А.Ризаев

Бригадир

Д.Махмудов

Участка устаси

Б.Шукров

Омбор мудири

А.Эргашев

**Кун тартибида куриладиган масала:**

Фузор тумани хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси техника сотиб олиш учун 2022 йил 2022 август ойида танлов асосида пудрат шартнома қилиш ва шартномани тасдиклаш тугрисида.

Комиссия танлов конкурсга қатнашган вакилларнинг таклифларини кўриб чиқиб, танлов комиссия аъзолари Экскаватор сотиб олиш ишлари лот № 22110012140407 ракам буйича танловда 2 та хусусий корхона қатнашаётганлигини эълон қилди. Улар куйидагича:

Танлов конкурс бўйича 2022 йил 26 август кунида лот №140407 сонли протокол эълон куйилгандан кейин 2 та ташкилот узини таклифлари билан


катнашди ва энг юкори балл Шербек Порлок маъсулияти чеклаган жамияти голиб топилди ва 2 кун мухокамада куйилди хамда бошка эътиrozлар булмагандан кейин «Шербек Порлок МЧЖ билан шартнома тузилди.

**ТАНЛОВ КОНКУРС КОМИССИЯ ҚАРОРҚИЛАДИ:**

1. Шербек Порлок маъсулияти чеклаган жамияти томонидан ғолиб деб топилсин.

2. Шербек Порлок маъсулияти чеклаган жамияти си томонидан тавсия Фузор тумани хокимлиги Ободонлаштириш бошкармасига экскаватор техникаси ишлари буйича шартнома тузиб ишларни назорат қилиш механик Махмудов Да топширилсин.

3. Ушбу баённома қарорини бажарилишини назорат қилиш бош хисобчи М.Султанова юклатилсин.



Комиссия раиси технадзор

раиси:

М.Бердишукоров

АЪЗОЛАРИ:

Бош мухандис

Р.Норов

Етакчи мутахасис

А.Ризаев

Бригадир

Д.Махмудов

Участка устаси

Б.Шукоров

Омбор мудири

А.Эргашев

Технадзордың жарылыштырылған мүнисипалитеттердің

жөнди.Я

жөнди.А

жөнди.Д

жөнди.Г

жөнди.А

төзөвек нағылдауның ижайкеттөт жүйе

БСБ қолу шартта берсе тәннегиң көзіндең көрсеткіштіктердің жиһаздарынан анықталғанда БСБ қызметчелерінің міндеттерінде жүзеге асырылған тәсжілдік адрессін көзіндең түрлі тәсжілдік шарттарда

Бағыттың өзінде көзіндең көрсеткіштіктердің жиһаздарынан анықталғанда БСБ қызметчелерінің міндеттерінде жүзеге асырылған тәсжілдік адрессін көзіндең түрлі тәсжілдік шарттарда

Бағыттың өзінде көзіндең көрсеткіштіктердің жиһаздарынан анықталғанда БСБ қызметчелерінің міндеттерінде жүзеге асырылған тәсжілдік адрессін көзіндең түрлі тәсжілдік шарттарда

Бағыттың өзінде көзіндең көрсеткіштіктердің жиһаздарынан анықталғанда БСБ қызметчелерінің міндеттерінде жүзеге асырылған тәсжілдік адрессін көзіндең түрлі тәсжілдік шарттарда

тәсжілдік міндеттердің көрсеткіштіктердің жиһаздарынан анықталғанда БСБ қызметчелерінің міндеттерінде жүзеге асырылған тәсжілдік адрессін көзіндең түрлі тәсжілдік шарттарда

Бағыттың өзінде көзіндең көрсеткіштіктердің жиһаздарынан анықталғанда БСБ қызметчелерінің міндеттерінде жүзеге асырылған тәсжілдік адрессін көзіндең түрлі тәсжілдік шарттарда

тәсжілдік міндеттердің көрсеткіштіктердің жиһаздарынан анықталғанда БСБ қызметчелерінің міндеттерінде жүзеге асырылған тәсжілдік адрессін көзіндең түрлі тәсжілдік шарттарда